

2025-yil davomida “Hududgazta’minot” AJ faoliyatida ochiqlik sohasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar

- 1. Jamiyat faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash bo‘yicha axborot berish tizimini takomillashtirish.**
“Hududgazta’minot” AJ tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, yirik loyihalar, ijtimoiy tashabbuslar hamda jamiyat faoliyatiga oid muhim ma’lumotlarni rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda e’lon qilib borish hamda ularni keng jamoatchilik uchun sodda va tushunarli shaklda yetkazish tizimini rivojlantirish.
- 2. Jamoatchilik bilan ochiq muloqot mexanizmlarini kuchaytirish.**
Fuqarolar, ommaviy axborot vositalari va blogerlar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida matbuot anjumanlari, brifinglar, media-turlar hamda ijtimoiy tarmoqlarda jonli muloqotlar tashkil etib, jamiyat faoliyati yuzasidan savol-javoblarga ochiq javob berish amaliyotini kengaytirish.
- 3. Jamiyat faoliyatini ommaviy axborot vositalarida tizimli yoritish.**
“Hududgazta’minot” AJda amalga oshirilayotgan islohotlar, innovatsion loyihalar, ijtimoiy tashabbuslar hamda xodimlar faoliyati haqida foto, video va tahliliy materiallardan iborat kontent tayyorlab, televideniye, bosma nashrlar va internet nashrlarida muntazam yoritishni tashkil etish orqali jamiyatning ijobiy imijini shakllantirish.